

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI, MILLIY TARBIYA RUHINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARINI TARAQQIYOT STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI

Nazarova Dilnoza Eraliyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD).

Toshtemirova Ra'no Baxtiyor qizi

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lim) 1- kurs magistri

Annottsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy tarbiya ruhini shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari tadqiq etiladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanish bosqichlari — ixtiyoriy diqqatning shakllanishi, ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ustunligi va emotsional ta'sirchanlik kabi xususiyatlar milliy qadriyatlarni singdirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda xalq pedagogikasi an'analari, milliy o'yinlar va og'zaki ijod namunalariidan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Muallif tomonidan bolalarning intellektual va ma'naviy rivojlanishida milliy o'zlikni anglashning o'rni yoritib berilgan hamda o'quv jarayonida milliy ruhni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim , milliy tarbiya , milliy ruh , xalq pedagogikasi, milliy o'yinlar , o'zlikni anglash , psixologik rivojlanish , innovatsion metodika.*

Аннотация: *В данной статье исследуются научно-теоретические и практические основы формирования духа национального воспитания у учащихся начальных классов, что является одной из приоритетных задач современной системы образования. Актуальность статьи заключается в том, что психологические этапы развития детей младшего школьного возраста — формирование произвольного внимания, преобладание наглядно-образного мышления и эмоциональная отзывчивость — являются наиболее благоприятным периодом для внедрения национальных ценностей. В ходе исследования анализируется педагогическая эффективность использования традиций народной педагогики, национальных игр и образцов устного творчества в соответствии с возрастными особенностями учащихся младших классов. Автором освещается роль национального самосознания в интеллектуальном и духовном развитии детей, а также разработаны инновационные методические рекомендации, направленные на развитие национального духа в учебном процессе.*

Ключевые слова: Начальное образование, национальный дух, народная педагогика, национальные игры, национальное воспитание, самосознание, психологическое развитие, инновационная методика

Abstract: This article explores the scientific-theoretical and practical foundations of forming the spirit of national education in primary school students, which is one of the priority tasks of the modern education system. The relevance of the article lies in the fact that the psychological stages of development of primary school children — the formation of voluntary attention, the predominance of visual-figurative thinking, and emotional responsiveness — are the most favorable period for the implementation of national values. The study analyzes the pedagogical effectiveness of using the traditions of folk pedagogy, national games, and examples of folklore in accordance with the age characteristics of primary school students. The author highlights the role of national identity in the intellectual and spiritual development of children and develops innovative methodological recommendations aimed at developing the national spirit in the educational process.

Key words : Primary education, national education, national spirit, folk pedagogy, national games, national identity (Self-awareness), psychological development, innovative methodology.

Millatimiz bugungi zamonda “ Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari “ g’oyasi asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo’ymoqda. Ushbu g’oya ta’lim tarbiya tizimiga ham bir qancha talablarni qo’yadi. Ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish uchun moddiy- ma’naviy sharoitlar yaratilishiga motiv vazifasini bajaradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida : “ Ta’lim – tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot – mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo’q. Chunki biz ko’p vaqt yo’qotganmiz. Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo’lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Besh yillik yangi Taraqqiyot strategiyamizni e’lon qildik. Oldimizga yalpi ichki mahsulot va eksportni karra – karra oshirish, sanoatni va axborot texnologiyalarini keskin rivojlantirish, kambag’allikni qisqartirish bo’yicha ulkan marralarni oldik. Bu vazifalarni kim uddalaydi? Albatta, maktabda zamonaviy bilimlarni egallagan, raqobatbardosh yoshlar” - deya ta’kidladilar muhtaram prezidentimiz [1.]. Ta’lim – tarbiya haqida gapirar ekanmiz, uning tub ildizi oilaga borib taqalishini aytib o’tishimiz lozim. Oila jamiyatimizning bir bo’g’ini ekan, avvalo, shu bo’g’inni mustahkam asosga qurishimiz, yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirish jarayonlarini aynan mana shu bo’g’indan boshlashimiz zarur. Bu fikrlarimiz tasdig’ini quyidagi qarorlarda ham ko’rishimiz mumkin. Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati bir qator qarorlarda, O’zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2017 yil 28 iyuldagi PQ –3160 - sonli [2.] , 2019 yil 3 maydagi PQ – 4307 – sonli [3.] , 2021 yil 26 martdagi PQ – 5040 – sonli [4.] Qarorlarida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, ushbu tahdidlarga nisbatan psixologik – g‘oyaviy kurash olib boorish vazifasi qo‘yildi. Oiladan keyingi ta‘lim- tarbiya maskani bu maktab hisoblanadi. Maktabdagi ta‘lim – tarbiya jarayonlari boshlang‘ich sinfdan boshlab yo‘lga qo‘yiladi. Boshlang‘ich sinf davri (6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha) jismoniy va ruhiy rivojlanishning faol bosqichi bo‘lib, ularda o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga o‘tish, ixtiyoriy diqqatning shakllanishi va mantiqiy tafakkurning rivojlanishi kuzatiladi . Bu davrda bola ota-ona va o‘qituvchi tomonidan beriladigan ma‘lumotlarni haqiqat sifatida qabul qiladi, taqlid qilishga moyillik kuchli bo‘ladi. Bu davrda bolaning fiziologik va psixik rivojlanishida keskin o‘zgarishlar yuz beradi:

- Ijtimoiy mavqe o‘zgarishi: Bola endi faqat oila a‘zosi emas, balki jamiyatning mas‘uliyatli a‘zosi — "o‘quvchi"ga aylanadi.

- Bilish jarayonlarining o‘sishi: Diqqat hali beqaror, lekin ixtiyoriy diqqat shakllana boshlaydi. 1-2 sinflarda ko‘rgazmali tafakkur ustun bo‘lsa, 3-4 sinfga kelib mantiqiy fikrlash tizimlasha boshlaydi. Xotira asosan ko‘rgazmali – obrazli bo‘lib, mexanik yodlashdan mantiqiy yodlashga o‘tadi. Bolalar ma‘lumotni mexanik eslab qolishdan ma‘noli eslab qolishga o‘tadilar. Milliy qadriyatlarni o‘rgatishda ularning ushbu xususiyatidan foydalanib, har bir urf-odatning mazmun-mohiyatini tushuntirish lozim.

- Tafakkur va hissiyot: Ko‘rgazmali – harakatli tafakkurdan ko‘rgazmali obrazli va mantiqiy tafakkurga o‘tish davri. Bolalar bu davrda narsalarning tashqi belgilari asosida fikrlashadi. Hissiyotlar o‘zgaruvchan , lekin o‘quv motivatsiyasi (o‘qishga qiziqish) shakllanadi. O‘zini nazorat qilish va mas‘uliyat hissi asta – sekin rivojlanadi.

- Ijtimoiy munosabatlar: O‘qituvchi fikri eng muhim bo‘ladi. Tengdoshlari bilan muloqotda jamoaviy ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

- Nutqning rivojlanishi : So‘z boyligi ortadi, nutq grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllana boshlaydi va yozma nutq o‘zlashtiriladi.

Inson xarakteri asosan go‘daklik paytida shakllanadi. Bu davrda qanday xarakter xislatlari shakllansa - uning ikkinchi tabiati sifatida mustahkam o‘rnashadi. Keyingi o‘zlashtiriladigan narsalar ular kabi chuqur o‘rnashmaydi.

Milliy tarbiya haqida gapirganimizda taniqli ma‘rifatparvar Abdulla Avloniyning “ Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot , yo najot – yo yo halokat , yo saodat – yo falokat masalasidir “ so‘zlari e‘tiborimizni tortadi. [5]. Mutafakkir bobolarimiz ham tarbiya haqidagi qarashlarini o‘zlarining asarlarida yozib qoldirganlar. Jumladan, Forobiy ta‘lim tarbiyaga birinchi marta ta‘rif bergan olim sanaladi: “ Ta‘lim - degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni , ma‘lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq- atvor normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, “ -deydi olim. [6.] Sa‘diy Sheroziy quyidagicha fikrlarni bayon etgan : “ Agar inson zoti asli yomon bo‘lsa, tarbiya unga foyda

bermaydi. Tarbiya – bu “tikanni gulga aylantirish “ emas, balki har bir insonning ichidagi bor yaxshilikni yuzaga chiqarishdir” . [7.] Inson xarakteri asosan go‘daklik paytida shakllanadi. Bu davrda qanday xarakter xislatlari shakllansa - uning ikkinchi tabiati sifatida mustahkam o‘rnashadi. Keyingi o‘zlashtiriladigan narsalar ular kabi chuqur o‘rnashmaydi. [8.] Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, har biro ta – ona milliy tarbiya an‘analarida go‘daklikdagi tarbiyaga ko‘proq e‘tibor qilishlari lozim.

Milliy tarbiya — bu xalqning ko‘p asrlk tajribasi, odob-axloq normalari va an‘analarini yoshlar ongiga singdirish, milliy o‘zlikni anglash jarayonidir. Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri amerikalik kulturantropolog Margaret Mid edi. M.Mid har bir kishining ma‘lum milliy muhitdagi xulq – atvorini tushunishda uning bolalikdagi miliy tarbiyaviy ta‘sirining katta ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan. Chunki, bolalarning milliy tarbiyaviy ta‘sirni qabul qilish jarayoni va kattalarning milliy fe‘l –atvori orasida izchil aloqa mavjud. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tib keluvchi an‘analar, marosim , udum, ishlab chiqarish vahayotiy malakalar, afsonalar, xulq – atvor shakllari, bolalarga, o‘smirlarga, qariyalarga munosabatlarning o‘ziga xosligi katta rol o‘ynashini M.Mid alohida qayd etgan. [9.] Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun milliy tarbiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Vatandarparvarlik: Ona yurt tabiatini sevish, davlat ramzlarini e‘zozlash.
- Kattalarga hurmat: O‘zbekona "labbay" deyish odobi, salomlashish madaniyati.
- Mehmondostlik va saxovat: Xalqimizga xos olijanoblik, mehmondo‘stlik, saxiylik fazilatlarini ertak qahramonlari (masalan, Zumrad va Qimmat) misolida tahlil qilish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiyani shakllantirish jarayonida quyidagi metodik yondashuvlarni qo‘llashimiz mumkin:

- "Ajodlar merosi — faxrim" darslari: Amir Temur, Alisher Navoiy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolarning bolaligi haqida qiziqarli ma‘lumotlar bilan tanishtirish , muzeylarga, teatrlarga sayohat uyishtirish;

- Xalq og‘zaki ijodi (folklor): Maqollar, matallar, tez aytishlar va topishmoqlar , xalq qo‘shiqlari, bolalar folklori , xalq dostonlari bolaning nutqini boyitish bilan birga, milliy tafakkurini ham o‘stiradi.

- Milliy o‘yinlar texnologiyasi: "Oq terakmi, ko‘k terak", "Chillak" , “Bekinmachoq” kabi milliy o‘yinlar orqali bolalarda jamoada ishlash va milliy g‘urur hissini uyg‘otish;

- “Milliy liboslarimiz” chellenjini , rasmlar tanlovini o‘tkazish;

- Milliy bayramlar va milliy taomlarimiz, urf- odatlarimiz haqidagi ma‘lumotlarni dars jarayonlariga integratsiya qilish;

- Darslarda milliy kontentlardan samarali foydalanish;

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari va qo‘llab – quvvatlashlari bilan tayyorlanib, internet tarmoqlarida berib borilayotgan “Bek va Lola

“ multfilmi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiya ruhini shakllantirishda yuqori samara beruvchi kontentlardan hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida milliy elementlardan foydalanilganda:

- o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi 25-30% ga ortadi;
- ma‘naviy-axloqiy tushunchalarni o‘zlashtirish darajasi 1.5 barobar yaxshilanadi;
- bolalarda milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va Vatan bilan faxrlanish, Vatanni sevish tuyg‘usi barqarorlashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda milliy tarbiya berish — bu shunchaki qadriyatlarni, an‘analarni o‘rgatish emas, balki bolaning qalbida milliy g‘urur, milliy o‘zlik poydevorini qurishdir. Yuqoridagi ishlarga qo‘shimcha ravishda quyidagi faoliyatlarni amalga oshirishimiz mumkin:

- har bir darsning "tarbiyaviy maqsad" qismiga milliy qadriyatlarni, insoniy fazilatlarni integratsiya qilish;

- maktab kutubxonalarini kichik yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan tarixiy hikoyalar, ertak, dostonlar bilan boyitish, maktablarda tashkil etilgan “Turon “ teatr gruppalari faoliyatida milliy ruhdagi spektakllar ijrosiga alohida ahamiyat berish;

- oila va maktab, mahalla hamkorligida "Milliy qadriyatlar haftaligi"ni o‘tkazib borish, har sohada ibrat, namuna bo‘luvchi, ijtimoiy faol insonlar bilan davra suhbatlari tashkil etish;

Yuqorida aytib o‘tilgan islohotlar, nafaqat qonun va qarorlarda, balki uzoq muddatli islohotlarda ham o‘z aksini topgan.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida milliy tarbiya ruhini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar , bu borada ishlab chiqilgan chora – tadbirlar bilan tanishishimiz mumkin.

**2022–2026 ЙИЛЛАРГА МЎЛЖАЛЛАНГАН
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ**

"TARAQQIYOT STRATEGIYASI"
MARKAZI

**4 АДОЛАТЛИ ИЖТИМОЙ СИЁСАТ ЮРИТИШ,
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

37-мақсад:



Хар бир фуқарога давлат ҳисобидан аниқ касб-хунарга ўқиш имкониятини яратиш. Касбга ўқитиш қўламини 2 баравар ошириб, жами **1 миллион нафар** ишсиз фуқарони касб-хунарларга ўқитиш ва бу жараёнда нодавлат таълим муассасаларининг иштирокини **30 фоизга** етказиш.

38-мақсад:



Мактаб-аъча таълимдаги қамров даражасини ҳазирги **67 фоиздан** камида **80 фоизга** етказиш.

39-мақсад:



Мактаб-аъча таълим тизимида **таълим сифатини** янги босқичга олиб чиқиш.

40-мақсад:



Мактаб-аъча таълим тизимида бюджет маблағларининг **мақсадли ва самарали** сарфланишини таъминлаш.

41-мақсад:



Мактабларни ривожлантириш миллий дастурини жорий этиш орқали халқ таълими тизимида қўшимча **1,2 миллион** ўқувчи ўрни яратиш.

42-мақсад:



2026 йилга қадар **ўқув дастурлари ва дарсликларни** илгор хорижий таъриба асосида тўла қайта кўриб чиқиб, амалда жорий этиш.

43-мақсад:



Малакали ўқитувчиларнинг ойлик маошларини босқичма-босқич **1 000 АҚШ доллари** эквивалентига етказиш.

44-мақсад:



Мактабларда **таълим сифатини** ошириш, педагог-кадрларнинг билими ва малакасини халқаро даражага олиб чиқиш.

45-мақсад:



Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятини бошланғич синф ўқувчиларини босқичма-босқич **бепул овқат** билан таъминлаш.

46-мақсад:



Олий таълим билан қамров даражасини **50 фоизга** етказиш ва таълим сифатини ошириш.

47-мақсад:



2026 йилга қадар 10 та салоҳиятли олий таълим муассасасини **QS ва THE** халқаро рейтингларига киришга мақсадли тайёрлаш.

48-мақсад:



Қарийб **100 минг** ўринли талабалар турар жойларини барпо этиш.

**5 МАЪНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШ
ВА СОҲАНИ ЯНГИ БОСҚИЧГА ОЛИБ ЧИҚИШ**

Жамиятда соғлом дунёқараш ва бунёдкорликни умумийликни ўқувчиларнинг ҳаракатга айлантириш

<ul style="list-style-type: none"> Ўзбекистон – маданийтаълимнинг қондириши амалга ошириш Тарбия-ташвиқот ишларини ташвиқот этиш Олий таълим ташкилотлари ва мақолаларда маънавий тарбиянинг устуворлигини таъминлаш "Мақола – туғил – вафот – республика" принципи асосида ижтимоий-маънавий муҳитни оптимallashtirish қилиш Мактабларни чинқам таълим ва маданият мақсадли ўқувчиларни айлантириш "Ёшлар – Янги Ўзбекистон бунёдкорлари" шiori остида "Янги Ўзбекистон – Учинчи Ренессанс" гoвoсини рўйбoғ чoқирoшини таъминлаш 	<ul style="list-style-type: none"> Аҳоли ўртасида ҳудудий маданиятни шакллантириш Миллий кадрлар ва маънавий меросни асраб-авайлаш, кенг оммалаштириш DAE, иқтисодий тармоқларда қилиш вақтида бериб бериш орқали ёнги маълумотлар тарқатишнинг олдини олиш Маънавий тарбияни йиллашнинг илғим асосланган индикаторларини ишлаб чиқиш Мафкуравий курунларга қилиш мoлoий хoл асосида йиллашда қилиш
--	---

**5 МАЪНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШ
ВА СОҲАНИ ЯНГИ БОСҚИЧГА ОЛИБ ЧИҚИШ**

Ўзбекистон тарихини ривожлантириш

- Ўзбекистон тарихини ўрганиш ва тарғиб қилишни янгида ривожлантириш
- Тарих фанини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини амалга ошириш

**5 МАЪНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШ
ВА СОҲАНИ ЯНГИ БОСҚИЧГА ОЛИБ ЧИҚИШ**

Китобхонликни кенг оммалаштириш

<ul style="list-style-type: none"> "Китобхонлик инновация" умумийлик ҳoвoсини рўйбoғ чoқирoш Китобхонликнинг оммалаштириш 	<ul style="list-style-type: none"> Адабoт-ўқувчилар маданиятини кўрсатишни янгида ривожлантириш Сoвoда янги бoвoсув таълими жoрий этиш
---	--

**5 МАЪНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШ
ВА СОҲАНИ ЯНГИ БОСҚИЧГА ОЛИБ ЧИҚИШ**

Миллатларaro тoтувлик ва динларaro бағрикенглик муҳитини мустаҳкамлаш

- Миллий маданият марказларини қўллаб-қувватлаш тизимини янгида таъминлаштириш
- Миллатларaro муносабатлар соҳасида **давлат сиёсати** концепциясини изчил амалга ошириш
- Турли миллат ёшлари учун қўшимча қўллаб-қувватлар яратиш
- Хорижий тилларда фаолият қилишнинг қилишда **миллатларaro** муносабатлар соҳасида давлат сиёсатини яратишнинг DAEларини қўшимча қўллаб-қувватлаш
- Дўстлик жамиятлари фаолиятини таъминлаштириш

Yosh avlodni komil inson bo'lib shakllanishi , sifatli ta'lim- tarbiya olishi jarayonlariga berilayotgan e'tibor hammamizni xursand qiladi, albatta. Bu jarayonlar uchun davlatimiz tomonidan kerak bo'ladigan barcha imkoniyatlar yaratilmoqda, sarmoyalar ajratilmoqda. Ertangi kelajakni bugungi yoshlarimiz qurishadi. Ulardagi ta'lim –tarbiya poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, kelajagimiz shunchalik mustahkam asosga quriladi. Bu biz kabi pedagoglarga yosh avlodni komil inson qilib

shakllantirish bosqichlaridagi vazifalarimizni, Vatan oldidagi farzandlik burchimizni to'laqonli ado etishimiz uchun yanada katta kuch, ilhom baxsh etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish , pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “ Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida “ gi PQ -3160 – sonli // [https:// lex.uz/ docs / 3360950](https://lex.uz/docs/3360950).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “ Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida “ gi PQ - 4307 – son Qarori // [https:// lex.uz/ docs / 4320700](https://lex.uz/docs/4320700).

4. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “ Ma'naviy – ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida “ gi PQ - 5040 – sonli Qarori // [https:// lex.uz/ docs / 5344692](https://lex.uz/docs/5344692).

5. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”.

6. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri “.

7. Sa'diy SHeroziy “Guliston”.

8. Izmaylov A. E. Pedagogika, 1991. 144-b.

9. M.Mid “Samoda ulg'ayish” 1927.